

INTERNET TELEVIDENIA VA ULARDAN FOYDALANISH USULLARI VA SAYTLARI.

Suyarov Akram Musayevich

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
axborot texnologiyalari kafedrası

PhD, dotsent

Xolmirzayev Islombek Sherzod O'g'li

Samarqand Iqtisodiyot va servis instituti
“Iqtisodiyot” instituti talabasi

Annotatsiya: Maqolada internet televideniyasining rivojlanishi, uning tarixi, hozirgi kundagi imkoniyatlari va internet orqali televideniyanı tomosha qilish usullari batafsil ko'rib chiqiladi. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar yordamida internet televideniyasidan qanday foydalanganlik haqida tahlil olib boriladi. Internet televideniyasining o'ziga xos xususiyatlari, foydalanuvchilarga taqdim etiladigan xizmatlar va asosiy video striming platformalari (YouTube, Netflix, Hulu va boshqalar) haqida gapiriladi. Ushbu maqolada, shuningdek, ushbu xizmatlar yordamida tomoshabinlarning harakatlarini tahlil qilish va internet televideniyasining jamiyatdagi o'rni haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Internet televideniyasi, Striming platformalari, Onlayn TV, Video xizmatlari, YouTube, Netflix, OAV (Ommaviy axborot vositalari), Media kontent, Televideniya usullari O'qilishUsulrı

Kirish

So'nggi yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi ommaviy axborot vositalari tizimida tub o'zgarishlarga olib keldi. Xususan, internet tarmog'ining global miqyosda keng tarqalishi an'anaviy televideniya faoliyatiga yangi shakl va mazmunbag'ishladi. Natijada internet televideniyasi (Internet TV yoki onlayn

televideniya) tushunchasi shakllanib, axborot tarqatish va media iste'moli jarayonida muhim o'ring egallay boshladi. Bugungi kunda internet televideniyasi nafaqat muqobil axborot manbai, balki an'anaviy televideniya bilan raqobatlasha oladigan mustaqil media platforma sifatida namoyon bo'lmoqda.

Internet televideniyasi foydalanuvchilarga video va audio kontentni real vaqt rejimida (live streaming) yoki yozib olingan holatda (on-demand) tomosha qilish imkonini beradi. Ushbu texnologiya orqali foydalanuvchi joy va vaqtga bog'liq bo'lmagan holda, mobil telefon, planshet, kompyuter yoki smart televizorlar yordamida istalgan media mahsulotdan foydalanishi mumkin. Bu esa an'anaviy televideniyaga xos bo'lgan qat'iy efir vaqti va cheklangan kanal tanlovidan vozkechishga imkon yaratadi.

Zamonaviy jamiyatda internet televideniyasining ommalashuviga bir nechta omillar sabab bo'lmoqda. Birinchidan, yuqori tezlikdagi internet aloqasining mavjudligi va mobil qurilmalarning keng tarqalishi. Ikkinchidan, foydalanuvchilarning axborotni tezkor, qulay va shaxsiy ehtiyojlarga mos tarzda qabul qilishga bo'lgan talabining oshib borishi. Uchinchidan, YouTube, Netflix, Amazon Prime Video, Hulu kabi yirik video striming platformalarining paydo bo'lishi va ularning doimiy ravishda yangilanib borayotgan kontent siyosati internet televideniyasining rivojiga kuchli turtki bo'ldi.

Adabiyotlar sharhi

So'nggi yillarda internet texnologiyalarining jadal rivojlanishi bilan bir qatorda internet televideniyasi mavzusi ham ilmiy va amaliy adabiyotlarda keng yoritilmoqda. Turli tadqiqotlarda internet televideniyasi an'anaviy televideniyaning raqamli muhitga moslashgan shakli sifatida talqin qilinib, uning asosiy afzalligi sifatida kontentni istalgan vaqt va joyda tomosha qilish imkoniyati ko'rsatiladi. Olimlarning fikricha, internet televideniyasi media iste'mol jarayonini tubdan o'zgartirib, tomoshabinni passiv kuzatuvchidan faol foydalanuvchiga aylantiradi.

Adabiyotlarda internet televideniyasining shakllanishi va rivojlanishi bosqichma-bosqich tahlil qilinadi. Dastlabki tadqiqotlarda u internet orqali telekanallarni jonli efirda uzatish vositasi sifatida ko'rilgan bo'lsa, keyingi ishlarda video striming, talab asosida

kontent (video on demand) va interaktiv xizmatlar bilan boyitilgan kompleks media tizim sifatida izohlanadi¹. Mualliflar internet televideniya­si­ning rivojlanishida keng polosali internet, bulutli texnologiyalar va mobil qurilmalarning ahamiyatini alohida ta’kidlaydilar.

Ko‘plab ilmiy manbalarda internet televideniya­si platformalarining tuzilishi va ishlash mexanizmlari ham yoritilgan. Tadqiqotchilar ushbu platformalar asosan kontent bazasi, uzatish (striming) texnologiyasi va foydalanuvchi interfeysidan iborat ekanligini qayd etadilar². Kontent bazasi video va audio materiallarni saqlash va boshqarishni ta’minlasa, striming mexanizmi ularni foydalanuvchiga real vaqt rejimida yoki yozib olingan holda yetkazib beradi. Foydalanuvchi interfeysi esa tomoshabin bilan platforma o‘rtasida qulay va interaktiv aloqani ta’minlaydi.

Ayrim tadqiqotlarda internet televideniya­si­ning ijtimoiy va madaniy ta’siri chuqur tahlil qilinadi. Xususan, yoshlar auditoriyasi orasida YouTube, Netflix, TikTok kabi platformalar asosiy axborot va ko‘ngilochar manbaga aylangani ta’kidlanadi³. Shu bilan birga, internet televideniya­si an’anaviy televideniya­ga nisbatan ko‘proq shaxsiylashtirilgan kontent taklif qilishi va foydalanuvchi xatti-harakatlariga moslashish qobiliyatiga ega ekanligi ko‘rsatiladi.

Ilmiy adabiyotlarda internet televideniya­si­dan foydalanish sohalari ham keng yoritilgan. Ta’limda masofaviy darslar, ochiq onlayn kurslar va videoma’ruzalar, madaniyat sohasida virtual konsertlar va ko‘rgazmalar, axborot sohasida esa jonli yangiliklar va tahliliy ko‘rsatuvlar internet televideniya­si­ning muhim yo‘nalishlari sifatida ko‘rsatiladi. Bundan tashqari, biznes va marketing sohalarida ham internet televideniya­si reklama va auditoriya bilan bevosita aloqani yo‘lga qo‘yish vositasi sifatida keng qo‘llanilmoqda.

Zamonaviy adabiyotlarda internet televideniya­si­ning yangi rivojlanish bosqichi – sun’iy intellektga asoslangan tavsiya tizimlari alohida e’tiborga olinadi. “Bu tizimlar foydalanuvchilarning qiziqishlari va tomosha qilish tarixiga asoslanib, mos kontentni avtomatik tavsiya etish orqali platformalarning samaradorligini oshiradi”. Ayrim

tadqiqotlarda esa internet televideniya real vaqt rejimida foydalanuvchi xatti-harakatlariga moslasha oladigan interaktiv media muhit sifatida tavsiflanadi.

Shuningdek, O'zbekiston va mintaqa miqyosida ham internet televideniya rivojlantirish va joriy etish bo'yicha qator ilmiy va amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. Ushbu tadqiqotlar asosan milliy media kontentni rivojlantirish, axborot xavfsizligini ta'minlash va raqamli media savodxonlikni oshirish masalalariga qaratilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi

SWOT tahlil natijalari ekspert tizimlarning hozirgi holati va ularning rivojlanish imkoniyatlarini aniq ko'rsatib berdi. Tahlil shuni isbotladiki, ekspert tizimlar inson bilimini tizimli shaklda jamlay oladi, qaror qabul qilish jarayonini tezlashtiradi va xatolik ehtimolini kamaytiradi. Bu ularning eng muhim kuchli tomonlari sifatida namoyon bo'ladi.

1-Jadval. Mavzuning swot tahlili

№	Platforma	Sayt/Ilova	Asosiy xususiyatlari	Obunaturi
1	Netflix	netflix.com	Original seriallar, filmlar, global kontent	Obuna (SVOD)
2	Disney+	disneyplus.com	Disney, Marvel, Star Wars kontenti	Obuna (SVOD)

3	Amazon Prime Video	primevideo.com	Amazon obunasi bilan birga, katta kutubxona	Obuna + qo‘shimcha ijara
4	Hulu	hulu.com	Jonli TV, istalgan vaqtda kontent	Obuna + jonli TV varianti
5	YouTube TV / YouTube	tv.youtube.com / youtube.com	Jonli kanallar, bepul videolar	Obuna yoki bepul (reklama bilan)
6	Apple TV+	tv.apple.com	Original kontent, Apple qurilmalari bilan moslashuv	Obuna (SVOD)
7	Paramount+	paramountplus.com	CBS, Nickelodeon kontenti	Obuna (SVOD)
8	Peacock	peacocktv.com	NBC kontenti, bepul versiya	Bepul + obuna

Internet televideniya-sidan foydalanish usullari ham tahlil qilindi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, foydalanuvchilar asosan uch asosiy usuldan foydalanadilar: jonli

efirlarni (live streaming) tomosha qilish, talab asosida video kontent (video on demand)dan foydalanish hamda qisqa formatdagi video materiallarni iste'mol qilish. Ayniqsa, video on demand xizmati keng tarqalgan bo'lib, foydalanuvchilar seriallar, hujjatli filmlar va ta'limiy videolarni aynan shu formatda tomosha qilishni afzal ko'rmoqdalar.

Shuningdek, tahlil jarayonida internet televideniya sifatining ijtimoiy ta'siri ham ko'rib chiqildi. Internet televideniya axborot tarqatish tezligini sezilarli darajada oshirgan bo'lsa-da, noto'g'ri yoki tekshirilmagan ma'lumotlarning keng tarqalishiga ham zamin yaratmoqda. Bu holat media savodxonlik masalasining dolzarbligini yanada kuchaytiradi.

Xulosa

Mazkur tadqiqot internet televideniya sifatining mohiyati, tuzilishi, ishlash prinsiplari hamda undan foydalanish usullari va asosiy platformalarini o'rganishga qaratildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, internet televideniya axborot va media kontentni raqamli muhitda tezkor, qulay va samarali tarzda yetkazib berish imkonini yaratadi, foydalanuvchilarning media iste'mol jarayonini soddalashtiradi hamda an'anaviy televideniya nisbatan kengroq tanlov imkoniyatini taqdim etadi. Olib borilgan tahlillar asosida internet televideniya sifatining kuchli va zaif tomonlari, mavjud imkoniyatlari hamda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tahdidlar aniqlab chiqildi.

Internet televideniya platformalarida kontent sifatini oshirish va uni muntazam yangilab borish orqali foydalanuvchilarning qiziqishini barqaror saqlab qolish tavsiya etiladi.

Internet televideniya sifatini sun'iy intellekt, tavsiya tizimlari va ma'lumotlar tahlili texnologiyalari bilan integratsiya qilish orqali foydalanuvchilarga shaxsiylashtirilgan media kontent taqdim etish samaradorligini oshirish maqsadga muvofiq.

Media sohasida faoliyat yurituvchi mutaxassislarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish va malaka oshirish dasturlarini kengaytirish internet televideniya sifatidan samarali foydalanishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan Adabiyotlar

1 Islomov A.A. Raqamli ommaviy axborot vositalari va internet jurnalistikasi. – Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2019.

- 2.Rasulov Sh.Sh.Zamonaviy televideniya va raqamli media. – Toshkent: O‘zMU, 2018.
- 3.Karimova M.N. Ommaviy axborot vositalarida raqamli transformatsiya jarayonlari. – Toshkent: Akademnashr, 2021.
- 4.Xolmatov D.R. Internet tarmog‘ida axborot tarqatish va media madaniyati. – Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyoti, 2022.
- 5.Abdullayev U.U. Raqamli televideniya va uning jamiyatga ta’siri. – Toshkent: Tafakkur, 2020.